
HURMATLI ELEKTR ENERGIYASI ISTE'MOLCHILARI!

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan ko'rsatilayotgan elektron xizmatlar sifatini yanada oshirish hamda iste'molchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida 2022 yil 1 may soat 23:00dan 3 may soat 22:00gacha Ma'lumotlarni qayta ishlash markazida profilaktik ishlar olib borilishini ma'lum qilamiz.

Mazkur vaqt oralig'ida elektr energiyasi uchun onlayn to'lovlarni amalga oshirish hamda shaxsiy hisob raqamdagi mavjud ma'lumotlarni olishda texnik uzilishlar bo'lishi, shu bilan birga iste'molchilarga qulaylik yaratish maqsadida ayni muddatda qarzdor iste'molchilar avtomatik tarzda tarmoqdan ajratilmasligini eslatib o'tamiz.

Keltirilgan noqulayliklar uchun oldindan uzr so'raymiz.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Matbuot xizmati.

2022-05-01 14:16:34